

OAV UCHUN KONTAKT MA'LUMOTLARI:

Christa Hyson, MPH
Senior Manager, External Relations
(513) 247-5254

DARHOL CHIQRISH UCHUN

Greater Cincinnati kasalxonalar va tanlanma proseduralarini to'xtatish
Statsionar va ambulator sharoitlaridagi
barcha rejalangan, shoshilinch bo'lmagan invaziv proseduralar kechiktiriladi.

Yuqumli kasalliklarning tarqalishining oldini olish, shaxsiy himoya vositalari va kasalxonalarning sig'implarini tejash uchun Greater Cincinnati kasalxonalar va tanlanma proseduralarini to'xtatadi. Bu qaror davlat organlari, Amerika jarrohlari kolleji va AQSh bosh jarrohining yo'riqnomalari asosida qabul qilindi.

Shoshilinch bo'lmagan proseduralarni kechiktirish hududimizga joylardan (masalan, xonalar va krovatlar) oqilona foydalanish, ta'minotlarni (masalan, shaxsiy himoya vositalari va ventilyatorlar) tejash va inson resurlarini (masalan, provayderlar va xodimlar) qayta yo'naltirishga ham imkon beradi. Ushbu resurslarni mas'uliyat bilan qayta taqsimlashdan foydalanish COVID-19 bilan og'riqan bemorlar sonining ko'payib ketish holatlariga yaxshiroq tayyorlanishimizga yordam beradi.

Shoshilinch bo'lmagan jarrohlik operatsiyasi va proseduralari bemorning hozirgi yoki kelajakdagi salomatligiga xatarsiz kechiktirilishi mumkin bo'lgan harakatdir. Masalan:

- a. Bajarilmagan hollarda bemorning hayotiga tahdid.
- b. Bo'g'inlar yoki organlar tizimining doimiy buzilishi tahdidi.
- c. Vaqtga bog'liq bo'lgan vaziyat.

Xizmat ko'rsatuvchilar va rejalovchilar keyingi qadamlarni aytish yoki xizmatlarni kelajakdagi sanalarga qayta rejalash uchun to'g'ridan-to'g'ri bemorlar bilan muloqot qilmoqdalar. Noqulay bo'lgani holda bular hududimizning xavfsizligi va tayyorligini kafolatlash uchun zarur bo'lgan qadamlardir. Aniq bir kasalxona yoki sog'liqni saqlash tizimining siyosatlar va yangiliklari haqida batafsil ma'lumotlar olish uchun uning veb-saytiga tashrif buyuring.

COVID-19 kasalligi haqida ko'proq ma'lumotlar olish uchun <https://healthcollab.org/covid-19/> saytiga kiring.

###